

**GLOBALASHUV JARAYONIDA YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY
QADRIYATLARNING IJTIMOIIY-MA'NAVIY AHAMIYATI****Atamuratov Shuxrat***Magistrant Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning odob-axloq tarbiyasida diniy qadriyatlarning o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Diniy qadriyatlarning yosh avlod ma'naviy kamolotiga ta'siri, ularning axloqiy qarashlari va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, diniy qadriyatlarning davlat yoshlar siyosati bilan uyg'unligi hamda ularni tarbiyaviy jarayonda samarali qo'llash mexanizmlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, odob-axloq, diniy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, e'tiqod, jamiyat, davlat siyosati.*

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль религиозных ценностей в формировании нравственно-этического воспитания молодежи. Раскрывается значение религиозных ценностей в духовном развитии молодого поколения, их влияние на формирование социальной ответственности, устойчивых моральных убеждений и гражданской позиции. Также рассматривается взаимосвязь религиозных ценностей с государственной молодежной политикой и основные механизмы их эффективного использования в воспитательном процессе.*

Ключевые слова: *молодежь, нравственное воспитание, религиозные ценности, духовность, мораль, общество, государственная политика.*

Annotation: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of religious values in the moral and ethical upbringing of young people. The study reveals the significance of religious values in the spiritual development of the younger generation, their influence on the formation of social responsibility, stable moral beliefs, and civic consciousness. In addition, the relationship between religious values and state youth policy, as well as the main mechanisms for their effective application in the educational process, are examined.*

Keywords: *youth, moral education, religious values, spirituality, ethics, society, state youth policy.*

Yosh avlod tarbiyasi har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan, axborot oqimlari jadallashgan hozirgi davrda yoshlarning odob-axloqiy kamoloti masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan yoshlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotida faol ishtirok etuvchi kuch sifatida kelajak rivojining poydevorini belgilab beradi.

Shu bois yoshlarni sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat va mustahkam axloqiy qarashlar asosida tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu

jarayonda diniy qadriyatlar yoshlarning axloqiy ongini shakllantirishda muhim ma'naviy manba sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyoviy qadriyatlar – inson va jamiyat rivojlanishida umumiy ahamiyatga ega bo'lgan, millat, din, irq va ijtimoiy mansublikdan qat'i nazar, barcha insonlarga tegishli ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va madaniy tamoyillardir. Ular sivilizatsiya jarayonida shakllangan va davomiy evolyutsiyaga duch kelgan umuminsoniy qadriyatlar sifatida qaraladi.

Yoshlarning odob-axloq tarbiyasida diniy qadriyatlarning o'rni davlat siyosati darajasida ham e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida yoshlar masalasi doimo e'tibor markazida bo'lib kelgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va ma'ruzalarida buyuk mutafakkirlarning asarlarini aholi, ayniqsa yoshlarimiz orasida keng o'rganish va targ'ib qilish zarurligi alohida ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, davlat rahbari: "Meni doimo o'yantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq" – deya alohida ta'kidlab o'tgani bejizga emas [2].

O'zbek jamiyatida diniy qadriyatlar tarixan xalqning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy me'yorlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Islom dini ta'limotlarida insonning komillikka intilishi, halol va pok yashashi, jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur anglab yetishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Qur'oni Karim va hadislar mazmunida insonni ezgulikka yetaklovchi, yomon xulqlardan qaytaruvchi ko'plab axloqiy ko'rsatmalar mavjud. Ushbu ko'rsatmalar asrlar davomida yoshlar tarbiyasida muhim mezon bo'lib xizmat qilib kelgan.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. Turli yot g'oyalar, axloqiy me'yorlarga zid axborotlar, individualizm va befarqlik kabi holatlar yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ana shunday sharoitda diniy qadriyatlar yoshlar uchun ma'naviy tayanch, ichki axloqiy nazorat mexanizmi vazifasini bajaradi. Diniy qadriyatlarga tayanib tarbiyalangan yoshlar o'z xatti-harakatlarini nafaqat huquqiy, balki axloqiy jihatdan ham baholashga odatlanadi. Bu esa ularning jamiyatda mas'uliyatli, intizomli va faol fuqarolar bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Diniy qadriyatlar asosida yoshlarning odob-axloqini shakllantirish jarayoni, avvalo, oilada boshlanadi. Oila – shaxs tarbiyasining birlamchi va eng muhim instituti bo'lib, unda bolaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va e'tiqodi shakllanadi. Ota-onaning hayot tarzi, xulq-atvori, halolligi va mas'uliyati farzand uchun eng kuchli tarbiyaviy omil hisoblanadi.

Shuningdek, ota-onaga hurmat va ehtirom masalasi alohida ta'kidlanib, bu fazilat yoshlar tarbiyasining muhim axloqiy mezon sifatida talqin etiladi. Xususan, Isro surasida shunday deyiladi: "Robbing faqat Uning O'zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishnigni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «uff» dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so'z ayt!" [3].

Agar oilada diniy qadriyatlarga hurmat, axloqiy me'yorlarga rioya qilish ustuvor bo'lsa, bu holat yoshlarning ongiga tabiiy ravishda singib boradi. Natijada yoshlar jamiyatda o'zini tutish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr ko'rsatish kabi fazilatlarini o'zlashtiradi.

Ta'lim muassasalari yoshlar tarbiyasida muhim ijtimoiy institut sifatida alohida o'rin tutadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda diniy qadriyatlarni mutaassiblikdan xoli, ilmiy va ma'rifiy asosda tushuntirish muhim hisoblanadi. Diniy qadriyatlarning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, ularni umuminsoniy axloqiy tamoyillar bilan uyg'un holda talqin etish yoshlarning sog'lom dunyoqarashini shakllantiradi.

Mahalla instituti ham yoshlar tarbiyasida muhim ijtimoiy makon hisoblanadi. Mahalla orqali yoshlarni jamoat ishlariga jalb etish, axloqiy me'yorlar va diniy an'analarni targ'ib qilish ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Mahalladagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va tarbiyaviy suhbatlar yoshlarning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi. Bu jarayonda diniy qadriyatlar yoshlarni o'zaro hurmat, hamjihatlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda diniy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga moslashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning axborot texnologiyalariga qiziqishi yuqori ekanini inobatga olgan holda, diniy-ma'rifiy kontentlarni zamonaviy shakllarda taqdim etish muhimdir. Bu orqali yoshlar ongiga diniy qadriyatlarning asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish, ularni yot va ekstremistik g'oyalardan himoya qilish mumkin. Shu jihatdan, diniy qadriyatlar nafaqat axloqiy tarbiya vositasi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Yoshlarning odob-axloq tarbiyasida diniy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Diniy qadriyatlar yoshlarni ezgulik, halollik, adolat va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilikning uzviy hamkorligi asosida diniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali barkamol, ma'naviy yetuk va mas'uliyatli avlodni tarbiyalash mumkin. Bu esa jamiyatning barqaror rivoji va ma'naviy yuksalishining muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевга диний-маърифий соҳада амалга оширилаётган ишлар ҳақида ахборот <https://president.uz/uz/lists/view/7331>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 257-b.
3. Qur'oni Karim. Isro surasi, 23-oyat. – Toshkent: Hilol-nashr, 2019. <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=17>
4. Qur'oni Karim. – Toshkent: Hilol-nashr, 2019.
5. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. – Toshkent, 2018.

6. Abdurahmonov Q. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2016.
7. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – 252 б.
8. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rnini. – Toshkent: "Adolat", 2016.